

ORGANIZING ENGLISH LANGUAGE LESSONS THROUGH INNOVATIVE AND CREATIVE METHODS

Avliyakulova Fotima Nusrtovna

Leading specialist of the Transformation Center of Navoi State University

ABSTRACT

This paper highlights the issues of organizing English language lessons based on innovative and creative methods. In the context of ongoing reforms in the education system, the importance of modern pedagogical technologies, interactive methods, and the communicative approach is analyzed. In addition, the scientific and methodological level of textbook content, as well as the role of exercises and tasks in developing students' speaking activity, independent thinking, and creativity are examined. The thesis substantiates that the use of innovative and creative approaches in English language teaching is an important factor in improving the quality of education.

KEY WORDS: English language education, innovative approach, creative methods, communicative competence, interactive learning, textbook content, quality of education.

INGLIZ TILI MISOLIDA DARSLARNI INNOVATSION VA KREATIV USULDA TASHKIL ETISH

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi ingliz tili darslarini innovatsion va kreativ usullar asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va kommunikativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, darsliklar mazmunining ilmiy-metodik saviyasi, mashq va topshiriqlarning o'quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda ijodkorligini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Tezisdagi ingliz tili ta'limida innovatsion va kreativ yondashuvlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishning

muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: ingliz tili ta’limi, innovatsion yondashuv, kreativ metodlar, kommunikativ kompetensiya, interaktiv ta’lim, darsliklar mazmuni, ta’lim sifati.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar fanlarni o’qitishda innovatsion va kreativ yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, ingliz tili fanini o’qitishda zamonaviy metodlardan samarali foydalanish o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili darslari faqatgina grammatik qoidalarni o’rgatish bilan cheklanmay, balki o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va ijodkorligini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Shu bois, darsliklar mazmuni va dars jarayonini innovatsion hamda kreativ usullar asosida tashkil etish bugungi ta’limning dolzarb masalalaridan biridir.

Shu bois, darsliklar mazmuni chuqur tahlil qilinib, ularning ilmiy-metodik saviyasi zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o’qitiladigan “Alifbo” va “Ona tili” darsliklari o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos, aniq va tushunarli bo‘lishi zarur. Fan mohiyatiga daxldor bo‘lmagan mavzularning haddan tashqari ko‘pligi bolalarda asosiy bilim va ko‘nikmalarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, darsliklardagi mashq va topshiriqlar o’quvchilarning mantiqiy fikrlashini, nutqini va savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Aks holda, ta’lim sifati pasayib, o’quvchilarda fanlarga bo‘lgan qiziqish susayadi. Demak, darsliklarni takomillashtirish, ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish va fanlararo muvozanatni ta’minlash bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu asosda, ingliz tili fanini o’qitishda innovatsion va kreativ yondashuvlarni amaliyotga joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Xususan, kommunikativ yondashuv, loyihaviy ta’lim, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ingliz tili darslarida rolli o‘yinlar, munozaralar, jamoaviy ishlash va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi va shuningdek keng doirada fikrlashiga ham turtki bo‘ladi.

Bundan tashqari, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy darsliklar va o‘quv materiallari multimedia vositalari, autentik matnlar hamda vizual elementlar bilan boyitilgan bo‘lishi lozim. Bu esa ingliz tilini o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli tashkil etishga imkon yaratadi.

Demak, ingliz tili fanini o‘qitishda innovatsion va kreativ metodlardan foydalanish nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual salohiyatini yuksaltirishda ham muhim omil hisoblanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta‘lim tizimida juda ko‘p yangilanishlar, o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak va amalga ham oshib kelmoqda. Bu modernizatsiya ishlari albatta ta‘lim tizimini, muhitini yaxshilashga qaratilgan. Agarda bu tizim yetarli darajada yaxshi tashkillashtirilsa, albatta ta‘lim kutilgan darajaga chiqadi va kutilgan natijalarni beradi.

Adabiyotlar:

1. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
2. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
3. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge University Press, 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.